

VOYAGA YETMAGAN SHAXSNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Obloqulova Shohista Xaydar qizi

Jamoat xavfsizligi universiteti

70310301-Psixalogiya mutaxassisligi magistranti.

Shohistaobloqulova1@gmail.com

+998779997521

Annotatsiya; Ushbu maqola — voyaga yetmagan shaxsning psixologik rivojlanish xususiyatlarini, ularning kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy-shaxsiy sohalaridagi dinamikasini, shuningdek, ushbu davrda yuzaga keladigan asosiy psixologik ziddiyatlar va risk omillarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Bu xususiyatlarni chuqur o'rganish — ta'lim, tarbiya jarayonlarini optimallashtirish va ularni ijtimoiy hayotga to'laqonli tayyorlash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zi; Deviant xulq, identiklik inqirozi, psixosotsial moratorium, formal-mantiqiy tafakkur, emotsional labillik, o'zlikni anglash, bo'ron va stress, Identiklik holatlari.

Аннотация; Данная статья представляет собой научно-теоретический анализ особенностей психологического развития несовершеннолетних, динамики их когнитивной, эмоционально-волевой и социально-личностной сфер, а также ключевых психологических конфликтов и факторов риска, возникающих в этот период. Глубокое изучение этих особенностей служит важной методологической основой для оптимизации процессов обучения и воспитания и полноценной подготовки подростков к социальной жизни.

Ключевые слова; Девиантное поведение, кризис идентичности, психосоциальный мораторий, формально-логическое мышление, эмоциональная лабильность, самосознание, буря и натиск (шторм и стресс), статусы идентичности.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the psychological development characteristics of minors, the dynamics of their cognitive, emotional-volitional, and social-personal spheres, as well as the main psychological conflicts and risk factors that emerge during this period. A deep study of these characteristics serves as an important methodological basis for optimizing the processes of education and upbringing and for fully preparing them for social life.

Keywords: Deviant behavior, Identity crisis, Psychosocial moratorium, Formal operational thought, Emotional lability, Self-awareness, Storm and Stress, Identity statuses.

Hozirgi kunda o'smirlardagi salbiy xulq-atvorning paydo bo'lishi murakkab jarayon hisoblanib, u o'smirlarning ehtiyojlaridan, qadriyatlaridan, hissiyotlaridan va ijtimoiy muhitidan yuzaga kelib boshlaydi. Yoshlarning tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lgan ota-onalar, o'qituvchi-tarbiyachilar va jamiyatimiz oldida, kelajak avlodni tarbiyalashdek ulkan vazifalar turgan bir vaqtning o'zida, ba'zi yoshlar xulq-tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar, xususan xulq-atvorida namoyon bo'layotgan og'ishlar va unga mos xatti-harakatlarning yuzaga kelayotganligi tarbiya uchun ma'sul shaxslarda juda katta muammo yaratmoqda. Voyaga yetmaganlik davri (odatda 11-12 yoshdan 17-18 yoshgacha bo'lgan davr) inson ontogenezida eng murakkab, ziddiyatli va hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr nafaqat jismoniy o'zgarishlar bilan, balki markaziy asab tizimi, intellektual salohiyat, shaxsiy qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlarda chuqur sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanadi.

Bu davr psixologik jihatdan "o'tish davri" deb ataladi, chunki shaxs bolalikning erkinliksiz holatidan kattalikning mustaqilligiga o'tadi. Ushbu transformatsiyaning markazida o'zlikni anglash ya'ni identiklik inqirozi turadi. O'smir o'zining "men"ini, ijtimoiy o'rnini faol izlaydi, tengdoshlar guruhiga mansublikni juda qadrlaydi va kattalarning avtoritetiga tanqidiy ko'z bilan qaray boshlaydi.

Erik Erikson, psixosotsial rivojlanish nazariyasining asoschisi sifatida, inson hayotini sakkiz bosqichga ajratgan. Ularning ichida o'smirlik davri taxminan 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lib, bu davr eng muhim inqirozli bosqich hisoblanib, uning markazida identiklik muammosi turadi. Identiklik inqirozning mohiyati

Eriksonning ta'kidlashicha, o'smirlik davrining asosiy psixosotsial vazifasi yaxlit va barqaror shaxsiy identiklikni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki qutb o'rtasidagi ziddiyat sifatida kechadi: **Identiklik bu** - O'smir o'zining kim ekanligi, qadriyatlari, e'tiqodlari va jamiyatlardagi o'zni haqida izchil, barqaror tasavvurga erishishga urinadi. Rollarni chalkashtirib yuborish esa Identiklik shakllanmay qolganda yuzaga keladigan holat. O'smir o'zini kim deb bilishi, qanday qadriyatlarga amal qilishi va kelajakda qanday rol o'ynashi kerakligini aniqlay olmaydi. O'smir identiklikni topishi uchun Erikson bu davrni "Psixosotsial Moratorium" deb ataydi. Bu shunday bir davrki, jamiyat o'smirlarga turli rollarni, qadriyatlarni va hayot yo'llarini sinab ko'rish uchun vaqtinchalik kechikish beradi. O'smir turli xil kiyim uslublarini, do'stlar guruhlarini, siyosiy yoki diniy e'tiqodlarni sinab ko'radi. U turli xil shaxsiy rollarni masalan, sportchi, akademik, qiyin o'smir, aqilli inson va boshqa rollarni o'ynab ko'radi. Ushbu sinovlar orqali o'smir o'zining turli xil qismlarini (o'tmishini, bugunini, kelajak ambitsiyalarini) bitta yaxlit "Men" konseptsiyasiga birlashtirishga harakat qiladi. Va ularni birlashtirilmasligi natijasida o'smirda negativ identiklikning

paydo bo'lishi yuzaga keladi. Negativ identiklik – bu jamiyat tomonidan salbiy, noto'g'ri yoki yomon deb baholanadigan rolni qabul qilishdir.

Agar o'smir pozitiv, ijtimoiy jihatdan ma'qul bo'lgan identiklikka erisha olmasa, ota-onasi, maktabi yoki jamiyati tomonidan berilgan rollar unga mos kelmasa yoki erishib bo'lmaydigan darajada bo'lsa, u o'zini tasdiqlash uchun boshqa yo'l qidiradi. Identiklikka erishilmaganda bola o'zini kichik va ahamiyatsiz deb his qilishi, rollarni chalkashtirib yuborishi, va hayolida men kimman, bilmayman degan savollar aylana boshlaydi. Bola negativ identiklikni qabul qilganda esa men kim ekanligimni jamiyatga ko'rsataman, garchi bu salbiy rol bo'lsa ham degan g'arazli fikrlar bolani qamrab oladi.

Eriksonning fikricha, hech qanday identiklikka ega bo'lmaslik, salbiy identiklikka ega bo'lishdan ko'ra psixologik jihatdan og'irroqdir[1]. O'smir uchun jamiyat uni "yomon" deb bilsa ham, u o'zini kimdir sifatida his etishi, butunlay yo'qolib qolishdan afzaldir. Bu deviant guruhlariga qo'shilish va salbiy xulq-atvorni namoyish etishning asosiy psixologik turtkisi hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik davri, mahalliy psixologik maktab vakili Vohid Karimov ta'kidlaganidek, inson rivojlanishida kritik va burilish nuqtasi hisoblanadi. Ushbu davrning psixologik mohiyati nafaqat yuzaga keladigan keskin fiziologik o'zgarishlar bilan, balki shaxsiy tuzilmalarda sifat jihatidan yangi hosilalarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Karimov bu kategoriyalarni quyidagicha bo'limlarga ajratadi;

1. Rivojlanishning markaziy yangi hosilasi: o'zlikni anglash. Karimov tadqiqotlarida o'smirlik davrining asosiy yangi hosilasi sifatida o'zlikni anglash tuyg'usining shakllanishi ko'rsatiladi. Bu jarayon shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartiradi; o'smir tashqi xatti-harakatlardan ichki sifatlar, qadriyatlar va ijtimoiy rollarga e'tibor qaratishga o'tadi. Bu o'z-o'zini baholashning noturg'unligiga sabab bo'ladi, chunki u endi o'zini jamoatning, tengdoshlarining va idealining ko'zgusida ko'rishga intiladi.

2. Kognitiv sohadagi sifat o'zgarishlari. Voyaga yetmagan shaxsning kognitiv rivojlanishi formal-mantiqiy tafakkurining deyarli yakunlanishi bilan xarakterlanadi. Bu holat tafakkurning endi bevosita sezgi obyektlariga bog'liq emasligini, balki abstrakt tushunchalar, gipotezalar va nazariy farazlar bilan operatsiyalar bajarish imkoniyatini anglatadi. Natijada, o'smirda tanqidiy fikrlash kuchayadi, u dunyoni, ijtimoiy normalarni va kattalar avtoritetini shubha ostiga qo'ya boshlaydi.

3. Emotsional-irodaviy sohaning ziddiyatliligi. Karimov bu davr emotsional sohasini "o'smirlik kompleksi" orqali tushuntiradi, bu yerda balog'atga yetish istagi bilan ichki bolalik xususiyatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Emotsional holatning labilligi (tez o'zgaruvchanligi) bu davrning ajralmas xususiyati bo'lib, o'smirda kuchli va chuqur ijtimoiy tuyg'ular (masalan, fidoyilik, do'stlik) paydo bo'ladi. Bu

ziddiyatlarning yuqori darajada bo'lishi deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi uchun psixologik asos yaratishi mumkin.

4. Ijtimoiy munosabatlarning qayta qurilishi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida tengdoshlar guruhining mutlaq ustuvorligi kuzatiladi. Guruhga mansublik o'smir uchun shaxsiy xavfsizlik va o'zlikni tasdiqlashning asosiy manbaiga aylanadi. Kattalar, xususan, ota-onalar bilan munosabatlarda o'smir "teng huquqli sheriklik"ni talab qiladi; u endi o'ziga nisbatan cheklovchi buyruqlardan emas, balki ishonch va maslahatga asoslangan muloqotdan manfaaddordir[2]. Bu tahlil Karimovning asarlaridagi asosiy g'oyalarni o'z ichiga oladi.

O'smirlardagi asosiy psixologik o'zgarishlar. O'smir o'zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qolaveradi. bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va bu o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilik hisoblanadi. Bu his o'smirda o'ziga, atrof-muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bola xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlarigaqayta orientatsiya qila boshlaydi. O'smir o'z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni boshlaydi. Kattalar va o'smirlar orasidagi ziddiyatlarning sababi – kattalarda ularga nisbatan bolalarcha munosabatning saqlanib qolishidir. O'smirning mustaqillik darajasi haqidagi tasavvurlar kattalar va o'smirlarda turlicha shakllangan[3].

Jean Piagetga ko'ra, o'smirlik davri kognitiv rivojlanishining eng yuqori bosqichi – formal operatsiyalar bosqichining boshlanishi bilan belgilanadi. Bu bosqichda shaxs endi faqat konkret narsalar haqida emas, balki mavhum, mantiqiy, tizimli va deduktiv (umumiy qoidadan xususiy holatga) tarzda fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu ularga ilmiy fikrlash, gipotetik vaziyatlarni tahlil qilish va kelajakni rejalashtirish imkonini beradi. J.Piagetning fikriga ko'ra, "Formal operatsiyalar bosqichining markaziy xususiyati shundaki, aql endi faqat narsalar yoki odamlar bilan emas, balki imkoniyatlar, gipotetiklar va nazariyalar bilan ham ishlay oladi"[4].

James Marcia Eriksonning identiklik nazariyasini amaliy jihatdan o'lchash mumkin bo'lgan to'rtta holatga ajratdi:

Moratoriya - izlanish bor, majburiyat yo'q,

Identiklikning erishilishi - izlanish bor, majburiyat bor,

Identiklikning muddatidan oldin qabul qilinishi - izlanish yo'q, majburiyat bor, masalan, ota-ona qarorini qabul qilish,

Identiklikning Tarqalishi - izlanish ham, majburiyat ham yo'q.

Voyaga yetmaganlar odatda Moratoriya yoki Tarqalish holatlarida bo'lishadi. James Marcia indentiklik holatiga shunday ta'rif beradi, "Identiklik holatlari – bu shaxsning turli hayotiy sohalarda (kasb, din, siyosat) izlanish olib borgan va biror majburiyatni qabul qilganligi asosida o'lchanadigan psixosotsial rivojlanish strukturasi." deb ataydi[5].

G. Stanley Hall (1844–1924) o'smirlik psixologiyasining otasi hisoblanadi. Uning 1904-yilda chop etilgan ikki jildlik monumental asari "O'smirlikning psixologiyasi" bu sohadagi ilk yirik tadqiqot bo'lib, u o'smirlikka nisbatan "Bo'ron va Stress" atamasini joriy etgan. Hallning nazariyasi biogenetik qonunga (rekapitulyatsiya nazariyasi) asoslanadi. Bu qonunga ko'ra, insonning individual rivojlanishi ontogenez, tur rivojlanishi filogenezning qisqacha takrorlanishidir. Shunga ko'ra, o'smirlik davri insoniyat tarixida sivilizatsiyaning yovvoyilikdan (ibtidoiy bosqich) sivilizatsiyaga o'tish davrini aks ettiradi. O'smirlik davri uzoq, biologik jihatdan majburiy va universal tarzda deyarli barcha o'smirlar boshidan kechirishi shart bo'lgan keskin ruhiy ziddiyat va beqarorlik davri hisoblanadi. Hallning fikricha, "Bo'ron va Stress" fenomeni uchta o'zaro bog'liq xususiyatda namoyon bo'ladi:

1. Mojarolar - O'smirlar, ota-onalar va hokimiyat vakillari bilan keskin va tez-tez takrorlanadigan nizolarga kirishadi. Bu ularning mustaqillikka (avtonomiyaga) intilishi va kattalarning nazoratidan chiqishga urinishi bilan bog'liq.

2. Kayfiyatning Keskin O'zgarishi - Hissiy beqarorlik, o'smirlar o'ta xursandchilik, ishtiyoq va quvonchdan birdan chuqur tushkunlik, g'amginlik va yig'loqilikka o'tishi mumkin. Ular hissiyotlarni boshqarishda qiynaladilar.

3. Xavf-xatarga Moyillik - Muvaffaqiyatsiz xatti-harakatlar va o'zini boshqara olmaslik. Bunga o'z joniga qasd qilish haqida o'ylash, o'z-o'zini tanqid qilish, agressiya yoki o'rnatilgan ijtimoiy qoidalarni buzish kabi xavfli xatti-harakatlar kiradi. Hallning nazariyasi o'smirlik psixologiyasining rivojlanshiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar uning ayrim jihatlarini inkor etadi. Zamonaviy psixologlar (masalan, Margaret Mead, Anna Freudlar) "Bo'ron va Stress" universal emasligini, aksincha, u ko'proq madaniy va ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligini isbotladi. Ko'pchilik o'smirlar bu davrni sezilarli darajadagi hissiy buzilishlarsiz o'tkazadi. Hall tasvirlagan darajadagi "bo'ron va stress" bu davrning patologik ko'rinishi hisoblanib, normal holat emas deb qaralgan. Shunday bo'lsa-da, Hallning nazariyasi o'smirlik davrida hissiy o'zgarishlar, mojarolar va eksperimentlarning kuchayishi mumkinligini birinchi bo'lib ta'kidlab, zamonaviy o'smirlik psixologiyasiga poydevor qo'ygan[6].

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davri inson ontogenezining eng murakkab, hal qiluvchi va ziddiyatli bosqichi hisoblanadi. Bu davr nafaqat fiziologik, balki markaziy asab tizimi, intellektual salohiyat, o'zlikni anglash kabi shaxsiy tuzilmalarda ham sifat jihatidan tub o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. O'smir bolalikdagi qaramlikdan kattalik mustaqilligiga o'tar ekan, uning asosiy psixosotsial vazifasi yaxlit va barqaror shaxsiy identiklikni shakllantirishdir. Identiklik inqirozi, ya'ni "men kimman?" degan savolga javob topish jarayoni, o'smir uchun eng muhim muammo sanaladi. Bu jarayon muvaffaqiyatsiz tugaganda, o'smirda rollarni chalkashtirib yuborish holati yoki hatto negativ identiklik (jamiyat tomonidan salbiy baholanadigan rolni qabul qilish) paydo

bo'lishi mumkin. O'smirda mustaqillik va kattalik hissi paydo bo'ladi, bu esa uning kattalar bilan munosabatlarida ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. O'smirlarga o'z qiziqishlari va rollarini sinab ko'rishlari uchun xavfsiz maydonni ta'minlash, ularni turli yo'nalishlardagi tadbirlarga jalb qilish orqali ijobiy identiklikni topishga ko'maklashish lozim. Ota-onalar va o'qituvchilar o'smirlar bilan "teng huquqli sheriklik" asosida muloqot qilishlari, avtoritar buyruqlardan ko'ra, ishonch va maslahatga asoslangan yondashuvni qo'llashlari kerak.

Foydalanigan adabiyotlar

1. Erik Erikson Identity: Youth and Crisis 1968 Nashriyot: W. W. Norton & Company, Nyu-York
2. Karimov, V. M. O'smirlik davri psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Arxiv.uz O'smir psixalogiyasi, 20 sentyabr, 2019
4. *The Psychology of the Child* (Bábel B. bilan hammualliflikda) 1969 Nashriyot: Basic Books, New York.
5. Development and Validation of Ego-Identity Status maqolasi, *Journal of Personality and Social Psychology*, 3(5), 551-558-betlar, 1966, Nashriyot: American Psychological Association (APA).
6. Hall, G. S. (1904). *Adolescence: Its Psychology and Its Relations to Physiology, Anthropology, Sociology, Sex, Crime, Religion and Education* (Vols. 1–2). D. Appleton & Company.